

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Nazarova Dilfuza Yuldosh qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute 3-kurs talabasi

Alikulova Muxayyo Sherovna

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Maqola mazmunida kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmuni, psixologik, pedagogik, metodologik asosi, kasbiy kompetentlikning tarkibi ularning mohiyati haqida fikir bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *"kompetensiya", "kompetentlik", layoqat, innovatsion kompetentlik, komunikativ kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik*

Аннотация: *В содержании статьи изложено содержание понятий компетентность и компетентность, психолого-педагогическая, методологическая основа, содержание профессиональной компетентности высказывается мнение об их сущности.*

Ключевые слова: *"компетентность", "компетентность", компетентность, инновационная компетентность, коммуникативная компетентность, социальная компетентность, специальная компетентность*

Annotation: *In the content of the article, the content of the concepts of competence and competence, the psychological, pedagogical, methodological basis, the content of professional competence are expressed in terms of their essence.*

Keywords: *"competence", "competence", competence, innovative competence, communicative competence, social competence, special competence*

"Kompetensiya" so'zi o'zbek tiliga tarjima qilinganda "layoqatli bo'lmoq", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'z lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan. "Kompetensiya" deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasiga mosligi tushuniladi. A. V. Xutorskiy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya-insonning shaxsiy sifatlarining uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat olib borishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya masalasi, bu tushunchaning asl mohiyati va uning jamiyatdagi o'rni haqidagi bahslar bugungi kungacha davom etmoqda.

"Kompetentlik" tushunchasi psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda u ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai

nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlarda, kutilmagan holatlarda kishining o’zini tuta olishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” darajasini anglatadi. “Kompetentlik” pedagogik nuqtai nazardan bilim, ko’nikma va malakaga egalik, ma’lumotlilik, o’z-o’zini shaxs sifatida namoyon qilish, o’zligini ro’yobga chiqarish, o’zining dunyodagi o’rnini anglash, yashashdan maqsadini bilish, eng oliy maqsadi shaxsga yo’naltirilganligi bois, o’z imkoniyatlarini to’laligicha safarbar qilish, atrofdagilarni tan olishi kabi sifatlarining manbai hisoblanadi. Pedagogika va psixologik adabiyotlarda kompetentlik tushunchasining asosan ikki xil turi juda keng o’rganiladi va alohida talqin etiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko’rsatish ko’nikma, malakalariga egalik, sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish mahoratidir.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash hisoblanib ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar ko’zga tashlanadi.

Maktabgacha ta’lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. U ta’limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Davlat o’quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko’nikma, malaka va qadriyatlarini majmuidir. Kompetentli bola o’z bilim, ko’nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo’llashi, o’z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog’liq bo’lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy (“Men” konsepsiyasi) ni shakllantirishni o’z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya - atrofdagi odamlar bilan o’zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo’lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o’yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag’batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og’zaki va yozma muloqot ko’nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o’zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o’rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg’ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo’lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o’zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni

eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati hisoblanadi. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko'proq o'zlarini guruhning bir qismi sifatida ko'radilar va o'z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq nuqtai nazar bilan qaraydi. Bolalar boshqalar bilan uyg'unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo'llab-quvvatlay oladilar.

Shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish). Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi. Bolalar hayotdagi o'z o'rnini biladilar, o'zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganadilar. Bola mustaqil va u o'ziga ishonadi. O'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U o'zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O'z g'oyalarini ilgari suradi va targ'ib qila oladi; o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganadi. U qanday

tanlashni biladi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi. O'z harakatlari uchun tashabbus va mas'uliyatni namoyon qiladi. O'zining yaxshi ko'rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadi. O'sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi. O'z ehtiyojlarini bildiradi va ularni qondirishni biladi, o'zini boshqara oladi; sog'lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigiyenik tartib qoidalarga rioya qiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, o'z salomatligi uchun mas'uliyatni namoyon qiladi.

Bilish kompetensiyasi-bilim olish, o'qish va o'rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Harakat va o'zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o'rganish

strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi ob'yektlarni o'rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot

jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishga e'tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo'yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin.

Bolaning kompetensiyasilari bola rivojining quydagi sohalarda belgilanadi:

- Jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini g shakillanishi
- Ijtimoiy-hissiy rivojlanishi
- Nutq,muloqat,öqish va yozish malakaalari
- Bilish jarayoning rivojlanishi
- Ijodiy rivojlanishi

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakillanishida eng birinchi o'rinda muhit ta'sir ko'rsatadi. Bola o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi. 6-7 yoshli bola o'z imkoniyatidan kelib chiqib turli xil faol harakat turlarini uyg'un holda va maqsadli bajara oladi.

Shaxsiy gigiyena malakalarini namoyon etadi. Nutq, muloqot jarayonlarida faol ishtirok etadi. O'z ona tilisini erkin eshitib tushunadi, kattalar bilan muloqot qiladi. Katta yoshdagi bolalar ona tilida to'g'ri talaffuz, mos grammatik shakllar va harfiy bo'g'inlardan foydalana oladi. 6-7 yoshli bolalarda chet tilini bilishga bo'lgan qiziqishlari dastlabki chet tili bilimlarini olishiga yordam beradi. Bolalar uchun dastlabki bilimlar esa o'zlarizga tanish bo'lgan kichik lug'atlar va kichik dialoglar hisoblanadi. Bundan tashqari badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlari ham paydo bo'la boshlaydi. She'r, ertak va hikoyalarni o'zlari mustaqil ravishda bayon qila oladi. Bundan tashqari, 6-7 yoshdagi bolalar predmetlar, voqea- hodisalar va holatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi. Shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi. Ijodiy rivojlanish sohasida 6-7 yoshli bolalar milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi.

Xulosa sifatida aytish joizki maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim olishida kommunikativ, ijtimoiy, bilish va shaxsiy kompetensiyalarning o'rni muhim sanaladi. Chunki har qanday nazariy va amaliy ta'lim uchun har tomonlama tayyor bo'lishi ta'limning o'zlashtirilishida asosiy o'rin tutadi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik kompetentlik uslubiy qo'llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.
2. Elmuratova D, Misirova N. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" O'quv qo'llanma "Guliston" 2021-yil 161 bet.
3. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" T.: 2015-yil 120 bet.
4. J. Hasanboyeva, X. A. To'raqulov, I. Sh. Alqarov, N. O'. Usmanov «Pedagogika» darslik «Noshir» T.: 2020-yil 456 bet.
5. G. M. Altibayeva "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondoshuv" maqola *Международный научный журнал* № 9 (100), часть 3 «Научный импульс» апреля, 2023